

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

9.2019

**научно-методический журнал
Издаётся с 2001 года**

Urganch – 2019

miy, yarim rasmiy va norasmiy munosabat ifodalovchi murojaat birliklari mikromaydoni kabi turlarga ajratishadi.¹

2. Norasmiy munosabat ifodalovchi murojaat birliklari. Bular, asosan, soʻzlashuv va badiiy uslubda keng qoʻllanadi. Bu holda murojaat birliklari soʻzlovchining kayfiyatidan, subyektiv munosabatidan kelib chiqib, juda erkin tanlanadi. Asosan, konnotativ semali, emotsional-ekspressivlikni oshiruvchi baholash xarakteridagi boʻyoqdor soʻzlar murojaat birligi boʻlib keladi: Qani, *Manzur*, fotiha ber, qassoblar qarab qoldi, – dedi Kesakpolvon (T.Malik). Ha, erka qizalogaʻim, sen mening kelajagim, umidimsan (S.Ahmad). Shunaqa, *ogʻaynichalish*, – dedi Kesakpolvon, – xoʻjayinni almashtiradigan vaqt keldi (T.Malik).

Toshkent shevasida oʻzidan yoshi katta, yaqin tutgan ayollarga nisbatan *opoqi* (opaginam, opajon) murojaat soʻzi ishlatiladi. M.Koshgʻariyning koʻrsatishicha, *-qi* yaqinlik, qarindoshlik maʼnosidagi ismlar oxiriga qoʻshilib, sevgi va xayrixohlik maʼnosini anglatuvchi qoʻshimcha sifatida qoʻllangan.² Demak, norasmiy va tanish presuppozitsiyalariga ega boʻlgan ushbu soʻz hozirda notanish boʻlgan ayol kishilarga nisbatan ham ishlatiladi.

2. Rasmiy munosabat ifodalovchi murojaat birliklari: Masalan: Siz ham qiziqsiz-da, *oʻrtoq Yaxshiboyev*. Menimcha, bu gaplar gʻirt uydirma (M. Muhammad Doʻst).

Muloqotchilarning ijtimoiy aloqalari sxematik holda quyidagilarga boʻlinadi:

– simmetrik – bir pogʻonali, teng boʻlgan muomala;

– asimmetrik – turli darajadagi, teng boʻlmagan muomala.³

Simmetrik muomalada suhbatdoshlarning har ikkisi ham bir xil, yaʼni teng mavqega ega boʻladi,⁴ ularning ikkalasi ham boshqaruv vazifasini bajarishi mumkin: talaba – talaba, oʻqituvchi – oʻqituvchi yoki xodim – xodim.

Asimmetrik muomalada esa kommunikatsiya ishtirokchilarining biri boshqaruvchi boʻladi, suhbatdoshlar turli pogʻonada “joylashadilar”: boshliq – xodim, ota – oʻgʻil, oʻqituvchi – talaba.

Demak, muloqot oʻrniga, sharoitiga, vaziyatiga koʻra bitta tinglovchiga turlicha murojaat shakllari bilan murojaat qilish mumkin. Chunki har bir inson oilada, doʻst-u birodarlari orasida, jamiyatda, xizmat doirasida oʻz oʻrniga, oʻz mavqeyiga ega. Binobarin, murojaat birliklari muloqot vaziyati, soʻzlovchi va tinglovchining oʻzaro munosabati, tinglovchining jamiyatda va oilada tutgan oʻrni, uning yoshi, jinsi kabilardan darak beruvchi, matnda maʼlum (nomlashdan tashqari) presuppozitsiyani ifodalovchi oʻziga xos kalit soʻzlardir.

Oqila Xolmoʻminovna Abdullayeva (ToshDOʻTAU) **KORPUS LINGVISTIKASI TILSHUNOSLIK YOʻNALISHI SIFATIDA**

Annotatsiya. *Maqolada korpus va uning xususiyatlari, korpus lingvistikasining tilshunoslikda tutgan oʻrni, korpus turlari, korpusning ishlash prinsipi va dasturlari yoritib berilgan.*

Аннотация. *В данной статье описывается корпус и его особенности, типы корпусов, корпусная лингвистика рассматривается как отрасль лингвистики, принципы и программы корпуса.*

Annotation. *The article is dedicated to language corpus and its features, the types of corpora, it describes corpus linguistics as a field of linguistics, principles and programs of the corpus.*

Калум soʻzlar: *korpus lingvistikasi, korpuslar, konkordans, korpus annotatsiyasi, metadata, korpus tasnifi, korpus dasturlari.*

¹ Глаголева Н.М. Функционально-семантическое поле обращения в современном русском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук, Таганрог, 2004, с. 8.//<http://www.vss.nlr.ru>.

² Кошгарий М. Девону луғотит турк. III том, Тошкент, 1963, 230-бет.

³ Фирсова Н.М. Испанский речевой этикет. М., 1991, с. 14; Формановская Н.И. Обращение с точки зрения коммуникативно-прагматического подхода. Москва, 2002, с. 83–88// <http://www.lib.ua-ru.net>.

⁴ Дорофеева И.В. Английское обращение в системе языка и в дискурсе. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук, Тверь, 2005, с. 16//<http://www.nauka-shop.com>.

Ключевые слова: корпусная лингвистика, корпусы, конкорданс, разметка, метадата, классификация корпусов, корпусные программы.

Key words: corpus linguistic, corpora, konkordans, tags, metadata, categorization of corpora's, corpus programs.

Korpus haqida to'xtalganda, juda ko'plab ilmiy manbalar va tadqiqot natijalarida turli xil yondashuv va ma'lumotlarni kuzatish mumkin.

Korpus – bu matnlar yoki matnlardan maxsus tanlangan qismlaridan ma'lum bir tarzda tashkil etilgan og'zaki birlik.

Korpus – bu lingvistik tahlil uchun muayyan tildan olingan matnlar yoki yozma matnlar to'plami.

Korpus – bu elektron shaklda saqlanadigan va kompyuterlashtirilgan qidiruvni tashkil etishga imkon beradigan har qanday tildagi og'zaki yoki yozma matnlardan iborat bo'lgan tabiiy matnlar to'plami.

Korpus – tilni yoki tilning o'zgarishini to'liq aks ettirish uchun tashqi mezonlar asosida tanlangan elektron shakldagi matnlarning qismlari to'plami. Lingvistik tadqiqotlar uchun ma'lumotlar manbayi sifatida ishlaydi.

Korpus tabiiy ravishda mavjud bo'lgan matnlarning tizimli to'plami sifatida belgilanishi mumkin (ham yozma, ham og'zaki nutq). Korpus har qanday sistematik matn to'plamiga murojaat qilishi mumkin bo'lsa-da, u bugungi kunda ham tor ma'noda ishlatiladi va odatda kompyuterlashtirilgan muntazam matn to'plamlariga murojaat qilish uchun ishlatiladi.

Tabiiy tillarni qayta ishlash bo'yicha zarur bo'lgan birinchi vazifalardan biri korpusdir. Tilshunoslikda va tabiiy tillarni qayta ishlashda korpus matnlar to'plamiga aloqador bo'ladi. Bunday to'plamlar bir tilning yoki bir necha tillarning matnlaridan shakllantirilishi mumkin. Ko'p tilli korpuslarning foydali bo'lishi uchun ko'plab muhim sabablar mavjud. Korpuslar, shuningdek, muayyan mavzuli matnlardan tashkil qilinishi mumkin (masalan, tarixiy matnlar, Bibliyaga oid va hokazo).¹

Korpus matnlarning katta to'plami bo'lishi bilan birga, bu lingvistik tahlilga asoslanadigan yozma yoki og'zaki materiallar asosi hamdir. Korpusning ko'plik shakli – korpuslar. Tilshunoslar tilshunoslik hodisalarini tahlil qilish uchun qanday ma'lumotlarni korpusga kiritadi, korpus qanday mezonlar asosida shakllantiriladi savoli yuzaga keladi. Korpusda qanday ma'lumotlar kiritilishi mumkin degan savolga aniqlik kiritamiz:

- 1) aniq bir yozuvchining yoki yozuvchilarning matnlari;
- 2) aniq o'n yil yoki asrga oid matnlar;
- 3) muayyan mavzudagi zamonaviy matnlar;
- 4) til yoki jamiyatda yetarlicha mavjud bo'lgan zamonaviy matnlardan foydalaniladi.

Yuqoridagiga o'xshash matn turlaridan korpus shakllantirilganda, quyidagilarni qidirish mumkin:

- 1) to'g'ridan to'g'ri kontekstdagi so'zlarning barcha shakllari;
- 2) lug'atdagi o'zgarish va izchillik;
- 3) eng ko'p tanlangan so'z birikib kela oladigan so'zlar;
- 4) ikkita matn o'rtasidagi eng muhim farqlar;
- 5) muayyan yozuvchining so'z va iboralarni qo'llashdagi o'ziga xoslik;
- 6) intertekstuallik: so'zning ma'nosi uning qo'llanilish yig'indisi sifatida;
- 7) so'z birliklaridan foydalanadigan yashirin modellar;
- 8) tillarni taqqoslash.

Korpus, odatda, juda kichik bo'lishi mumkin, masalan, faqat 50 ming so'zni o'z ichiga oluvchi yoki ko'proq millionlab so'zlarni o'z ichiga olgan korpuslar. Korpus ichidagi matnlar

¹ Matthew Mayo. Building a Wikipedia text corpus for natural language processing, 2017. <https://www.kdnuggets.com/2017/11/building-wikipedia-text-corpus-nlp.html>.

turli kitoblar, gazetalar yoki jurnallardan skaner qilingan yoki elektron yuklab olinishi mumkin. Boshqa yozma korpuslar badiiy asar namunalaridan yoki bir muallifning barcha asarlarini o‘z ichiga olishi mumkin (masalan, Alisher Navoiy asarlari). Shakllantiriladigan korpuslar maqsadi va korpus menedjeriga ko‘ra turli xil bo‘ladi. Hozirda bir qancha mashhur korpuslarni namuna sifatida o‘rganish mumkin:

- umumiy korpuslar/ma’lumotnoma korpuslar (BNC – Britaniya Milliy korpusi yoki Ingliz tili banki) – butun bir tilni ifodalashga qaratilgan;
- tarixiy korpuslar (Xelsinki korpusi, ARCHER) – tilning ilk bosqichlarini taqdim etishni maqsad qilgan;
- mintaqaviy korpuslar (WCNZE – Vellington corpus of written New Zealand English) – tilning bir mintaqaviy turini ifodalashga yo‘naltirilgan;
- og‘zaki korpuslar (LLC – London-Lund korpusi) – og‘zaki tilni ifodalashga qaratilgan.¹

“Korpusning qidiruv tizimi va uning ishlash prinsipi, odatda, 3 turdagi asosiy qismni o‘z ichiga oladi, bu korpusdagi ma’lumotlar bazasini tekshirishga yordam beradi. Bular: metama’lumot, matn razmetkasi va lingvistik annotatsiya. Metama’lumotlar – matn kim tomonidan yozilgani, qachon nashr qilingani, qaysi tilda yozilgani to‘g‘risida ba’zi ma’lumotlarni beradi. Metadata korpus matnida kodlanishi, bundan tashqari, alohida hujjat yoki ma’lumotlar bazasida saqlanishi mumkin. Matn razmetkasi (tekstual markup) matnda haqiqiy so‘zlardan boshqa ma’lumotlarni ham kodlaydi. Misol uchun, matn razmetkasi, odatda, matnni formatlashni ifodalash uchun ishlatiladi, chunonchi, kursiv yozuvni boshlash va tugatish kabi. Og‘zaki korpuslar transkripsiyasida metama’lumotlar va matn razmetkasida ko‘rsatilgan ma’lumotlar transkriptni tahlil qilish uchun juda muhim bo‘lishi mumkin. Metama’lumot, odatda, matndagi ma’ruzachilarni aniqlab beradi va har birining yoshi va jinsi haqida foydali ma’lumot beradi.

Matn razmetkasi, keyinchalik, har bir ma’ruzachi gapirishni boshlaganini va tugatganligini ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Korpusga kiritilgan metadata va matn razmetkasi birgalikda bir qator tadqiqot savollariga javob beradi. Biroq biz faqatgina kursiv yoki aniq ma’ruzachining nutqi boshlangan yoki tugagan vaqtdagi korpus matnining xususiyatlarini yozib olishimiz mumkin. Shuningdek, matn korpusi ichida lingvistik ma’lumotlarni kodlashimiz mumkin, keyinchalik, bu tahlilni muntazam va aniq tarzda tiklashimiz mumkin, bu holatda korpus analitik yoki lingvistik nuqtai nazar bilan izohlanadi. Annotatsiya, odatda, bir xil kodlash qoidalarini matn razmetkasi sifatida foydalanadi, masalan, XML (extensible markup language) qirrali-bracket teglari oson ishlatilishi mumkin, bu yerda otli fraza boshlanadigan nuqtada (<np>) va tugash nuqtasida (</np>) ishlatiladi. Masalan, <np> *Talaba xonada* </np> *o‘tiribdi.* (<np> The cat </np> sat on <np> the mat </np>).

Korpusga lingvistik annotatsiya qanday kiritilgan va nimani izohlashi bo‘yicha chegaralar bormi, degan savol yuzaga keladi. Lingvistik annotatsiya xususida uchta yondashuv mavjud: faqat avtomatik annotatsiya, avtomatlashtirilgan annotatsiya lekin keyin qo‘lda tuzatiladi va to‘liq qo‘lda izohlash. Ushbu yondashuvlarning hech biri hozircha xatodan holi emas. Masalan, ingliz tilida nutq qismlarini avtomatik tarzda izohlashni yuqori darajadagi aniqlik bilan bajarishi mumkin. Olimlar Garsayd va Smitlar (1997) 97 foizdan ko‘prog‘i aniqlangani tog‘risida hisobot bergan. Bu avtomatik annotatsiyada xatolar borligini anglatadi, lekin bu bilan qo‘lda ishlov berishda hech qanday xatoga yo‘l qo‘yilmasligini kafolatlash mumkin emas – hech qanday insoniy tahlil mukammal emas”.² Umuman olganda, korpuslardan statistik lingvistik analizi va ilmiy nazariya tekshiruvida foydalaniladi va bu jarayon kam vaqtlar oralig‘ida amalga oshirilishi bilan ahamiyatlidir.

Shakllantirilgan korpuslarda lingvistik analiz dasturiy ta’minot tomonidan amalga oshiriladi. Dasturiy ta’minot bitta maxsus korpus uchun yaratilgan yoki barcha korpus turlariga xizmat qiladigan dasturiy ta’minot bo‘lishi mumkin. Ko‘p foydalaniladigan dasturiy ta’minotdan biri

¹ Nadja Nesselhauf. *Corpus Linguistics. A Practical Introduction*, October 2005 (last updated September 2011).

Mono Conc Pro (<http://www.camsoftpartners.co.uk./monoconc.htm> saytida mavjud) va Word-Smith dasturlari ham eng ko‘p ishlatiladigan korpus dasturidir. Shu va shunga o‘xshash korpus dasturlari orqali tanlangan matndan biror so‘zni qidirish uchun belgilash, qidiruvga berish, qidiruv natijalariga ko‘ra nafaqat so‘zning uchrash miqdori haqida ma’lumot olish, shuningdek, so‘z bilan birikib kelish imkoniyatiga ega birlik haqida ham ma’lumot olish mumkin. Masalan, ACE (the Australian Corpus of English) korpusida Word-Smith dasturi orqali *stark* so‘zining qidiruv tahlili olib borilganda quyidagicha natija olingan.

N	Concordance	Set	TaqWord No.	File	%
1	ustoms. Although it is a very stark and testing movie - mu		23.606	ace_c.txt	67
2	in recurring images of death, stark and shocking in their pr		85.920	\ace_j.txt	77
3	devised by an automaton. In stark contrast to the orderly		51.823	\ace_f.txt	85
4	ells of older buildings not too stark a comment. Beyond the		1.019	ace_k.txt	4
5	lights on and there we were stark naked. They called all t		13.268	ace_k.txt	55
6	the outline of a pagoda tree stark against an opal sky. I fi		13.014	ce_w.txt	79
7	lock, 1983). They often draw stark, absolute contrasts of li		46.140	\ace_j.txt	43
8	was refluxed for 24 h (Dean-Starkwater separator being u		9.377	\ace_j.txt	9
9	if you cavort across the hills stark naked when the moon's		9.287	ace_p.txt	42

Tahlildagi chap tomondagi 1 dan 9 gacha bo‘lgan raqam o‘ng tomondagi topilgan natijalar miqdori, ace_j.txt – bu korpusdagi faylning nomi, ya’ni qaysi matndan olinganini anglatadi. Bu kabi tahlillarni boshqa korpus dasturlari orqali ham amalga oshirish mumkin. Korpus qidiruv tizimi ishga tushirilganda sekundlar ichida olish mumkin bo‘lgan natijani biz qo‘limiz bilan uzoq vaqt ichida olamiz. Yuqoridagi tahlil eng oddiy ko‘rinish va turidan biridir, korpuslar orqali ko‘plab maqsadli lingvistik tahlillarni o‘tkazish uchun o‘zbek tilida ham til korpusining yaratilishiga ehtiyoj yuqoridir.

MUNDARIJA

МАТЕМАТИКА

Ж.А.Отарова. Разрешимость одной краевой задачи для уравнения смешанного типа четвертого порядка.....	3
--	---

FALSAFA

Ў.Абилов, А.Худайбердиев. Глобаллашув даврида ахборот таҳдиди, ахборот хуружи ва ахборот хавфсизлигининг фалсафий жиҳатлари ҳақида.....	8
А.Б.Фуломов. Коэволюция назариясида табиатга муносабат.....	12
А.Р.Самадов. Покланиш-форигланиш – шахс эстетик идеалининг эволюцион хусусияти сифатида.....	15
Р.Р.Замилова. Патриотическое воспитание молодёжи Узбекистана и формирование у нее нравственного идеала.....	19

TILSHUNOSLIK

Б.Х.Данияров. Лисоний даражаланиш қонунияти ўзбек тили лексик синонимлари тадқиқининг лингвистик методологияси сифатида.....	23
М.А.Раджабова. Ономастик компонентли фразеологик ва паремиологик бирликларнинг эквивалентлик тадқиқига доир.....	29
Ю.Ходжиев. “Алпомиш” достонида “дўст” лексемаси қўлланишининг концептуал имкониятлари.....	35
Н.Аhmedova. Murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari.....	40
О.Х.Аbdullayeva. Korpus lingvistikasi tilshunoslik yo‘nalishi sifatida.....	43

ADABIYOTSHUNOSLIK

К.Ў.Ҳамраев. Ҳикояда бадиий деталь такомилли.....	47
А.Эшмуродов. “Холдорхон” достонида қўлланган сажъ санъати ҳақида.....	51
Н.М.Ўрмонова. Таржима ва адабий алоқаларда “Жаҳон адабиёти” журналининг аҳамияти.....	54
В.Раhимова, S.Отaxonova. Boltaboy Bekmatov – Xorazm adabiy muhitining yetakchi vakillaridan biri.....	57

PEDAGOGIKA

О‘.Оdamova. O‘quvchilarning bilish faolligini taraqqiy ettirishda sinf rahbarining roli.....	61
О.Худайберганов. Эркин курашчиларнинг машғулот ва мусобақа фаолиятини ҳисобга олган ҳолда машғулотлар юкламаларини тақсимлаш.....	63
М.И.Расулова. Хорижий тилларни ўрганиш ва ўргатиш хусусида баъзи мулоҳазалар.....	66
З.Давронова. Специфические особенности восприятия французской речи на слух.....	69
G.B.Abdukadirova, G.Sh.Khamroyeva. The Role of Humour in Second Language Acquisition. 74	
F.Masharipova. Use of Clil Technology in English Classes.....	77
Д.К.Каттабаева. The Effectiveness of Using Songs in Teaching Process of English Language.....	80
S.Saidova. Evaluation Methodology of Reading Skills for ESP Students.....	83
R.Shavdirova. Developing Role and Significance of Iss in Learning Process.....	87
M.Rakhmanova. The Secrets of Conducting an Effective Lesson.....	90

ILMIY AXBOROT

G.Sh. Boltayeva. Yoshlarda kitobxonlik madaniyatini oshirish va shakllantirish mexanizmlar....	94
А.Г.Юлдашев. Мақолларнинг оламнинг лисоний манзарасидаги ўрни.....	97
Mavzuna Sirojiddin qizi Muxiddinova. “Tarixi Xumuliy” asarida muallif tarjimaiy holiga oid ayrim ma’lumotlar.....	102